



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР


5 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 5, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 5, ISSUE 4




ТОШКЕНТ-2022



Doston Faxriddin o'g'li Akramov,
Buxoro davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasini o'qituvchisi

SOVET BOSHQARUVI DAVRIDA O'ZBEKISTON MAORIFIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI

For citation: Doston F. Akramov, THE ROLE OF WOMEN IN EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD. Look to the past. 2022, vol. 5, issue 4, pp.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sovet boshqaruvi davrida O'zbekiston maorifida xotin-qizlarning o'rni, O'zbekiston hududida maorif tizimida xotin-qizlarni faoliyati, sohalarda xotin-qizlarning jalb qilinishi, xotin-qizlar jonkuyarlikda qozongan yutuqlar tilga olingan. Sovet boshqaruvi davrida mavjud tarixiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada qilish asnosida, maorif tizimida sovetlar mafkurasining targ'iboti hamda uning natijasida xotin-qizlarning harakati, ularning jonbozlikda ko'rsatgan xizmatlari, maorif tizimi tarkibi, uning mazmun-mohiyati ochiq tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Dekret, jenotdel, ssuda, krujok, pioner, texnikum, akusherlik, internat, akademiya.

Акромов Достон Фахриддин оглы,
Бухарский государственный университет
преподаватель кафедры всеобщей истории

РОЛЬ ЖЕНЩИН В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКИСТАНА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль женщин в образовании Узбекистана в советское время, деятельность женщин в системе образования Узбекистана, участие женщин в сфере, достижения женщин в сфере. Углубленное наблюдение за историческими событиями советской эпохи, пропагандой советской идеологии в системе образования и, как следствие, движением женщин, их ревностным служением, наглядно анализируется структура системы образования, ее содержание.

Ключевые слова. Указ, женотдел, кредит, кружок, пионер, техникум, акушерство, интернат, академия.

Doston F. Akramov,
Bukhara State University
Lecturer at the Department of World History

THE ROLE OF WOMEN IN EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD

ABSTRACT

This article discusses the role of women in education in Uzbekistan during the Soviet era, the activities of women in the education system in Uzbekistan, the involvement of women in the field, the achievements of women in the field. In-depth observation of the historical events of the Soviet era, the propaganda of the Soviet ideology in the education system and, as a result, the movement of women, their zealous services, the structure of the education system, its content is clearly analyzed.

Index Terms. Decree, jenotdel, loan, krujok, pioneer, technical school, obstetrics, boarding school, academy.

1. Dolzarbligi:

Jahon tarixida insonning o'rni va ahamiyati, uning tenglik tamoyilida ishtiroki hamda chora-tadbirlari so'zsiz taraqqiyotga isbot sanaladi. Mamlakatimiz ikkinchi prezidenti Shavkat Mirziyoyev so'zlari bilan aytganda "Shu borada ilm –fan va ta'lim–tarbiya sohasining moddiy –texnik bazasini yanada mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domlarning mashaqqatli va ma'suliyatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yangi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi"[1, B.25]. Shu bois, tarix zarvarqlarini xolis, haqqoniy tahlil etish va o'rganish, mavjud tarixiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada qilish asnosida, maorif tizimida xotin–qizlarning faoliyati, ularning jonbozlikda ko'rsatgan xizmatlari, maorif tizimi tarkibi, uning mazmun-mohiyati ochiq namoyon etilgan. Talabalar ilmiy muhitga kirar ekan, avvalo o'zining vatanparvarlik xususiyatini saqlab qolib, o'z davlati tarixini chuqur o'rganishi va barcha qatori xotin-qizlar ham bu huquqdan foydalanishi kerak.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolada xolislik, tarixiylik, xronologik tarixiy metodlar qo'llanilgan va ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Sovet boshqaruvi davridagi xotin-qizlar masalasi mazmun-mohiyati tahlil qilinib, uning nazariy asoslariga to'xtalib o'tildi. Kommunistik mafkuraning milliy kadrlarga o'tkazgan ta'siri hamda natijalari qiyosiy tahlil etilgan. Davlat idoralariga xotin-qizlarning jalb etilishi va ularning salmog'i alohida statistik tahlillarda mazmun-mohiyatini ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Sovet hokimiyatining 1917 yil oktyabrida qabul qilgan dastlabki dekretlaridan biri xotin-qizlarning iqtisodiy va siyosiy jihatdan huquqda tengsizligini yo'qotish, xotin-qizlarni erkaklar bilan chinakam teng huquqqa ega qilish to'g'risidagi dekret edi. 1917 yilning dekabrda V.I.Lenin imzosi bilan tarbiya va maorif ishlarini diniy mahkama qo'lidan olib, Maorif Xalq Komissarligi ixtiyoriga topshirish to'g'risida dekret e'lon qilindi. O'zbekiston Kommunistik partiyasi xotin-qizlar o'rtasida ommaviy-siyosiy ishlarga faol yo'naltirib yubordi. Sovet davlati o'zining barqarorlikka erishish yo'li deb, dastlab maqsadni madaniy hayotni izga solish hisoblab, 1919-yilning 26-dekabrda V.I.Lenin tarixiy hujjatga-Xalq Komissarlari Sovetining savodsizlikni tugatish to'g'risidagi dekretiga qo'l qo'ydi: bu dekret asrlar bo'yi hukm surib kelgan qoloqlik va jaholatga qarshi kurashishda juda katta rol o'ynadi. Ilm-ma'rifatdan hamma mehnatkashlarni bahramand qilish va avvalo savodsizlikni tugatish zarur edi[3, B.17]. Shu dekret asosida 1920-yil noyabrda Turkiston Xalq Komissarlar Soveti "Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasida savodsizlikni tugatish to'g'risida" dekret chiqariladi. Dekretda 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan savodsiz fuqarolarni majburiy ravishda o'qishga jalb etish va maktablarda hamda savodsizlikni tugatish kurslariga yo'naltirish zarur edi. Shu yil aholi savodxonlik darajasi o'rganilib, 4% yaqin deb xulosa qilingan. Mahalliy aholi xotin-qizlarini savodsizligini tugatish maktablarga jalb qilish sohasida Sovet hukumati tomonidan katta ishlar amalga oshirildi. Maktablarga jalb etish maqsadida har xil imtiyozlar ham taqdim etildi. Xususan, Turkiston ASSR Xalq Komissarlar Sovetining 1924-yil 11-noyabrda qarori qabul qilindi va bunga

ko'ra savodsizlikni tugatish maktablarini tamomlagan xotin-qizlarga va olti oylik kurslarda tahsil olgan dehqonlarga imtiyozli kreditlar va qishloq xo'jaligi banklaridan ssuda mablag'lari berildi. Bu imtiyozlar evaziga qishloq xo'jaligi asboblari va yerlar ajratilib ularning mablag'lari 2 yil muddatga to'lash sharti bilan berilgan. Bu kabi chora-tadbirlar ko'p amalga oshirilgan, 1924-1925-o'quv yilida Samarqand viloyatida savodsizlikni tugatish kurslarida 5010 kishi, shundan 322 kishi xotin-qizlar bo'lib, ulardan 155 kishi o'zbeklar tashkil etgan[4, B.34].

Masalan, 1925 yildayoq O'zbekiston Kommunistik partiya Markaziy Komiteti huzurida, shahar va rayon partiya komitetlari huzurida xotin-qizlar o'rtasida ishlash bo'limlari— jenotdellar barpo etildi; ishchi va dehqon xotin-qizlari o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlari olib borish uchun bu jenotdellar qoshida alohida partiya tashkilot komissiyalari ham tuzildi. Jenotdellar xotin-qizlar orasida ommaviy-siyosiy ish olib bordi, xotin-qizlarni umumiy ma'lumot to'garaklari va partiya maktablariga tortdi: mahalliy xotin-qizlarni mamlakatning siyosiy-iqtisodiy hayotiga faol qatnashtirishda katta rol o'ynadi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida O'zbekistonda xotin-qizlar klublari muhim ahamiyatga ega bo'ldi; shu klublardan birinchisi — 1924 yilda Toshkentning sobiq eski shaharida ochilgan edi. So'ngra, bunday klublar boshqa shaharlarda ham ochila boshladi. Xotin-qizlar klublari huzurida bolalar yasilari, xotin-qizlar va bolalar uchun vrachlar konsultatsiyalari, savodsizlikni tugatish maktablari, huquqiy masalalar yuzasidan maslahat beradigan kabinetlar, turli xil krujoklar ochildi, xotin-qizlar bu krujoklarda ishlab chiqarishga doir ba'zi ixtisoslar oldilar. Ko'pgina xotin-qizlar klublari qoshida o'zbek qizlari uchun pioner tashkilotlari ham tuzilgan edi. O'zbekistondagi mavjud 12 ta xotin-qizlar klublarining tajribasi qishloq va ovullardagi xotin-qizlar o'rtasida olib boriladigan hamma madaniy-oqartuv ishlar maktablarda markazlashtirilib olib borildi. O'zbekistonda xotin-qizlar o'rtasida ish olib borishning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri jenotdellar qoshida tashkil etilgan vakilalar majlislari edi. Vakilalar kasalxonalar, maktablar, bolalar bog'chalari va yasilari, sudlar, fabrika-zavod komitetlari va boshqa muassasalarning ishlarini yaxshilash sohasida juda faol ishladilar. O'zbek xotin-qizlari respublikada 1925—1927 yillarda yer-suv islohotini muvaffaqiyat bilan o'tkazishda erkaklar bilan bir safda turib kurashdilar.

O'zbekiston Kommunistik partiyasining 1925-1927 yillarda bo'lib o'tgan syezdlarida xotin-qizlar o'rtasida ish olib borish masalalari har taraflama muhokama qilindi. Bu vaqtda O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi, O'zbekistonda yer-suv islohoti muvaffaqiyat bilan o'tkazilgan respublika partiya tashkilotlari va sovetlar ancha mustahkamlangan, respublikada xo'jalik qurilishi juda kengaygan edi. Maktablarda yoshlarni tarbiyalash, o'zbek qizlarini maktablarga tortish ancha yaxshilangan, xotin-qizlarning madaniy darajasi ko'pgina yuksalgan, Xotin-qizlar o'rtasidagi turli ommaviy ishlar mustahkamlangan edi. Bu davrda, o'zbek xotin-qizlarining bilimga bo'lgan intilishi juda o'sganligi munosabati bilan, xotin-qizlar maorifi sohasida juda katta ishlar qilindi. 1925/26 o'quv yillarida ijtimoiy tarbiya tizimidagi 96 maktabda xotin-qizlardan 9454 kishi, savodsizlikni bitirish uchun ochilgan 82 ta maktabda 2130 kishi o'qidi. O'g'il va qiz bolalar aralash o'qiydigan birinchi bosqich maktablarida qizlardan 4563 kishi o'qidi. Shu bilan birga, xotin-qizlar maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash ham kuchaytirildi. Masalan, 1925/26 o'quv yilida mahalliy aholi xotin-qizlaridan 128 kishi, undan keyingi o'quv yilida esa 291 kishi o'qituvchi bo'lib yetishdi. Boshqa bir qancha qiyinchiliklarni ham bartaraf qilish lozim bo'lgan edi; masalan, xotin-qizlar maktablari uchun binolar yetarli emas edi, jihozlar juda kam edi, o'zbek xotin-qizlari orasidan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan o'qituvchilar hali uncha ko'p yetishib chiqmagan edi. Ko'pincha shunday hollar ham bo'lgan ediki, maktablarda o'quv-tarbiya ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi tufayli, mahalliy millat o'g'il va qizlaridan ba'zilari, ko'pincha, o'zlarining ongi yaxshi ochilmagan otionalari yoki qarindoshlarining ta'siriga berilib, maktablarda o'qishni tashlab ketib, eski usul maktablarga kirgan edilar. Shu sababli, 1928 yilning noyabrida O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti Sovetlar 2-chaqiriq IV sessiyasida «Eski usul maktablar va qorixonalarni tugatish to'g'risida» qaror qabul qilindi. Shundan keyin respublikaning hamma yerida eski usul maktablar yopildi. O'zbekiston partiya va sovet tashkilotlarining tashabbusi va rahbarligida xotin-qizlar uchun bir qancha maktablar va xotin-qizlar orasidan rahbar xodimlar tayyorlaydigan maxsus kurslar ochildi. Masalan, 1929 yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan respublika partiya konferensiyasi o'z qarorida quyidagilarni uqtirib o'tgan edi: Yerli aholi qizlarini ijtimoiy tarbiya maktablariga keng suratda

tortish masalasini qo'yish zarur. Xotin-qizlar o'rtasida ish olib borishda asosiy e'tiborni xotin-qizlar o'rtasida ishlovchi xodimlar tayyorlash va umuman madaniy-ijtimoiy ishlar olib boradigan xodimlar tayyorlashga qaratish kerak. Shu sababli, xotin-qizlar savodsizligini tugatish maktablarini mumkin qadar ko'proq ochish, yerli aholi xotin-qizlarini oliy o'quv yurtlariga kirishga tayyorlaydigan maktablar ochish yo'li bilan xotin-qizlar maorifini yuksaltirishga jiddiy e'tibor bermoq kerak. Xotin-qizlar maxsus o'quv yurti bo'lgan inprosga, akusherlik kurslariga va xotin-qizlardan savodsizlikni tugatish maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash kurslariga ayniqsa alohida e'tibor berish kerak. 1923/24 o'quv yilidan boshlab, respublika xalq xo'jaligining o'sishi, xalq maorifi moddiy bazasining mustahkamlanishi, aholining jamoatchilik ishlarida faol qatnasha boshlashi tufayli, xotin-qizlar maorifining taraqqiyoti anchagina rejali izga tushib oldi. Xalq maorif organlari xotin-qizlar o'quv yurtlarini va turli xil kurslarni tez sur'atlar bilan ko'paytirish va kengaytirish yo'lida jonbozlik bilan ishladilar. Mahalliy ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish maqsadida 1923 yil 23 noyabrda 183-sonli qaror qabul qilingan. Qarorda mahalliy ayollarga yordam berishga qaratilgan jamg'arma tuzish lozimligi ilgari surilgan. Buxoro KP MK ayollar bo'limi qoshida volost tashkilotchilarini tayyorlash bo'yicha ikki oylik kurslar tashkil etilgan. Natijada Buxoroda 55 nafar ayol volost tashkilotchilari kursini bitirib chiqqan[7, B.62]. 1925/26 o'quv yilidan boshlab, o'g'il bolalar maktabi qoshida qizlar uchun maxsus sinflar ochila boshladi. Quyidagi jadvaldan xotin-qizlar maktablari va undagi o'quvchilar sonining 4 yil ichida qanday o'sib borganligini yaqqol ko'rish mumkin. Bu jadvaldan xotin-qizlar o'quv yurtlarining va ulardagi o'quvchilarning soni yildan-yilga oshib borganini yaqqol ko'rinib turadi.

1. Jadval

Xotin-qizlar o'quv yurtlari va ularda o'quvchilar sonining o'sishi[8]

O'quv yurtlar xillari	1923/1924 o'quv yili		1924/1925 o'quv yili		1925/1926 o'quv yili		1926/1927 o'quv yili	
	O'quv yurtlari soni	O'quvchilar soni	O'quv yurtlari soni	O'quvchilar soni	O'quv yurtlari soni	O'quvchilar soni	O'quv yurtlari soni	O'quvchilar soni
Ijtimoiy tarbiya maktablari	30	1344	34	2158	96	9454	101	9723
Internat maktablar	-	-	3	163	12	458	13	512
Savodsizlikni tugatish maktablari	23	500	51	1123	82	2130	94	2467
Bilim yurtlari	-	-	1	200	1	200	1	200
Akusherlik kurslari	-	-	1	30	1	30	1	63
Pedagogika texnikumi	-	-	-	-	4	160	4	206
To'qimachilik texnikumi	-	-	-	-	-	-	1	100
Akusherlik texnikumi	-	-	-	-	-	-	1	103

Bulardan tashqari, o'zbek xotin-qizlaridan savodsizlikni tugatish xodimlari, maktab va maktabgacha tarbiya xodimlari tayyorlash kurslari ochilgan edi. Maorif Xalq Komissarligi va xalq maorif bo'limlari xotin-qizlar o'quv yurtlari sonini ko'paytirish va ulardagi o'quv-tarbiya ishlarini

yaxshilash, maktablarni jihozlash va o'qituvchi xotin-qizlarning malakasini oshirish sohasida katta ish olib bordi. Xotin-qizlar maktablarining hamma muallimalari qayta tayyorlash kurslarida o'qitildi, bu kurslarda 1925/26 o'quv yilida 279 kishi o'qidi, bulardan yerli aholi 148 kishi, shu jumladan o'zbek xotin-qizlari 139 kishi edi.

Mehnatkashlar savodsizligini tugatish jarayonida birinchi besh yillik rejasi faol yo'lga qo'yildi. 1929 yil Samarqand okrug partiya komiteti huzurida madaniy yurish shtabi tashkil etildi. Shu bois shahar va qishloqlarda savodsizlikni tugatish ishlari faol olib borilib, bir yillik say-harakat natijasida Samarqand okrugida 142 ta savodsizlikni tugatish guruhleri tashkil etilgan. Bu guruhlarda tinglovchilar soni 4260 kishini tashkil etgan. Bu jarayon korxonalar va muassasalarni ham chetlab o'tmadi, korxonalar qoshida komissiya tuzilib, 1929 yilda komissiya tashabbusi bilan 65 ta shunday maktablar tashkil etildi. Keying yillarda jamoat va kasaba uyushmalari tarkibida ham 25 ta savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etildi. Shu kabi turli muassasalarda savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilib, barcha aholini yoshidan, millatidan, kasbidan, tajribasidan qat'iy nazar ommaviy ravishda chora-tadbirlar olib borildi hamda partiya o'zining g'oya va mafkurasini ommaxalqqa birdek yoyish maqsadini shunday amalga oshirdi. Buning natijasida xalqlar o'zining ish faoliyatida, oila davrasida va fikr-mulohazalarida ham kommunistik g'oyalar bilan sug'orilgan fikrlarni o'zining shiori deb bilgan. Bu davr hech qanday to'siq va muammolarsiz, tenglik shiori bilan amalga oshirildi. Hatto xotin-qizlar ham shunga jalb etilib, ajoyib kommunistik madaniy armiyani tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Biroq bu sohadagi ishlar partiya organlari tomonidan bo'rttirib, ko'rsatildi. Amalda esa ayrim hollarda joylarda to'xtab qoldi. Bu borada majburlash, zo'rlash yo'li bilan amalga oshirilib, natijada salbiy ta'sirlar ham bo'y ko'rsatdi. 10-15 yashar qizlarni erga berish hollari kuchaydi, bu esa o'zini o'ldirish bilan tugashiga olib keldi. 1927-1928 yillarda 2,5ming ayollar yovuz kuchlar qurboni bo'ldi. Lekin bunga qarshi ishlar ham olib borildi. 1928 yilda ayollarga nisbatan g'ayriqonuniy harakat olib borganligi uchun 671 kishi jazoga tortildi. Shunday qilib, salbiy ta'sirlar bilan birga ijobiy natijalar ham bo'y ko'rsatdi. Xotin-qizlar hamma sohada faol qatnasha bordi. 20-yillar oxirida qishloq xo'jaligi xodimlarning deyarli 80% ulushi ham ayollarga to'g'ri kelar edi. Hatto bu yer-suv islohotlarida ham ayollar ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. O'sha yillarda bir hujjatda "Ko'maklashuvchi komissiyada xotin-qizlar faol qatnashmoqdalar. Samarqand vohasida 10 desyatina yerlar qoldirilib, o'rtahol va kambag'al dehqonlarga foydalanishga topshirilgan edi. Ammo yashirib boy va katta zamindorlar foydalanayotganligini aniqlab, fosh etishda yuksak xizmat qilganliklari e'tirof etilgan. 1924-yil avgustda Samarqand eski shahar qismida xotin-qizlar klubi tashkil etilgan, unda 200 kishi a'zo sanalgan. Samarqand xotin-qizlar klubiga Rizobayeva rahbarlik qilgan. Tojik xotin-qizlari maorifini taraqqiy qildirish uchun o'sha 1925/26 o'quv yilida Samarqandda Tojik xotin-qizlar pedagogika texnikumi ochildi, bu esa keyinchalik tojik xotin-qizlar maktablari sonini ko'paytirishga imkon berdi[8, B.47].

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish klublarida ommaviy axborot vositalari, jurnal va gazetalar nashr qilish ham e'tibordan chetga qolmay, o'lkada jami 18 ta, Samarqandda esa 2 ta bosmaxona tashkil etilgan. Xotin-qizlar uchun nashr etilgan «Yangi yo'l» gazetasi va «Yangi hayot» jurnali ham xotin-qizlar o'rtasida siyosiy-ilmiy bilimlar tarqatish va ularning kommunistik madaniy saviyasini oshirishda katta rol o'ynadi. Lekin shunday bo'lsada, ayrim muharrirlarning yozishicha, jumladan, Mahmud Said Ahroriyning "Xotin" maqolasida xotin-qizlarning BXSrdam ham haqiqiy ma'noda tenglikka erishmaganligi, ular orasida ma'rifatsizlik, xo'rlik kuchligi bilan bog'liq achchiq haqiqat ochiq bayon qilingan. "Erkaklarning o'ylaganicha xotin ermakdur, o'yinchoqdir, qo'g'irchoqdir. Ko'ngli qanday tilasa shunday sevadur, mijg'alaydur, sindaradur va ezadur"-deb yozadi[9]. Butun dunyoda ishchilarning sinfiy harakatlari 1910 yildan buyon ishchi xotin-qizlar baynalmilal harakati bo'lib kelmoqda. Ushbu baynalmilalning 11-yilligi munosabati bilan xotin-qizlarni o'qitmoq, ular orasida ong va bilim tarqatmoq, xotin tashkilotlari yasamoq, boshqa xotinlar bilan hamkorlik olib bormoq shiori bilan qadam tashlaymiz deb kelishildi[10]. Xotin-qizlar oliy ma'lumotga ega bo'lish uchun 1927 yil Samarqand pedagogika instituti tashkil etildi, 1930 yil bu o'quv yurti Samarqand davlat pedagogika akademiyasi deb nomlandi hamda bu yerni birinchi tomomlagan xotin-qizlar qatorida Mohira Mamlizoda, Rahima Umarova, Maryam Rustamova,


Manzura Sobirova, Robiya Ahmedova, Mavjuda Alixo'jaye, Maqsuda Qosimxo'jayevar tilga olinadi. [11, B.145-149].

4. Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, sovetlar amalga oshirgan tadbirlar va choralari o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatish bilan birgalikda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ijobiy o'zgarishlar ham yuz berdi. Bu jarayonlar natijasida ijtimoiy tengsizlik, xotin-qizlar huquqsizligini, tabaqaviy imtiyozlarni bekor etilishi kabi jamiyatni muttasil inqirozga ushlab turuvchi omillar tugatildi hamda yangi tipdagi shart - sharoit va imkoniyatlarga ega ta'lim muassasalari tashkil etildi. Mazkur ta'lim muassasalari va maorifga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar ta'sirida aholi orasida o'zlarining g'oya va qarashlarini singdirib bordilar.

Иқтибослар / Сноски / References


1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston". 2017. –B.592 (Mirziyoyev Sh. M. We will resolutely continue our path of national development and take it to a new level. - Tashkent: "Uzbekistan". 2017. –P.592)
2. Эргашев Қ Ўзбекистонда халқ таълимнинг ривожланиш тарихи. –Ташкент. Ўқитувчи. 1996. –Б.80(Ergashev Q History of development of public education in Uzbekistan. - Tashkent. Teacher. 1996. –P.80)
3. Ражабов С. Ўзбекистонда совет мактаблари тарихига доир. –Ташкент. Ўзқувпеддавнашр. 1957. – Б.135(Rajabov S. On the history of Soviet schools in Uzbekistan. - Tashkent. Self-study publication. 1957. - B.135)
4. Инаятов Н. Ленин ва Ўзбекистон совет маданияти ривожланиши. –Ташкент: Қизил Ўзбекистон. 1960. –Б.47(Inayatov N. Lenin and the development of Soviet culture in Uzbekistan. - Tashkent: Red Uzbekistan. 1960. –P.47)
5. Каримов Р. Октябр революцияси ва Ўзбекистон маданий қурилиши. –Ташкент: Ўзбекистон КПКМБН,1967. –Б.40(Karimov R. The October Revolution and the cultural construction of Uzbekistan. –Tashkent: Uzbekistan KPMKBN, 1967. –B.40)
6. Rahmonov T. XX asrning 30yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy va madaniy hayot (muammo va yechimlar) –Buxoro. 2011.-B.92(Rakhmonov T. Social and cultural life in Uzbekistan in the 30s of the XX century (problems and solutions) - Bukhara. 2011.-P.92)
7. Рашидов О. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги маҳаллийлаштириш. – Ташкент: Навруз, 2019. –Б.168.(Rashidov O. Localization in the structure of Soviet rule in Uzbekistan. –Tashkent: Navruz, 2019. –B.168.)
8. Ражабов С. Ўзбекистонда совет мактаблари тарихига доир. –Ташкент. Ўзқувпеддавнашр. 1957. – Б.135(Rajabov S. On the history of Soviet schools in Uzbekistan. - Tashkent. Self-study publication. 1957. - B.135)
9. Mahmud Said Ahroriy Xotin // "Ozod Buxoro". 1923 yil 6-noyabr. 8-son. (Mahmud Said Ahroriy Khatin // "Free Bukhara". November 6, 1923. Number 8.)
10. Xotinlarimizga uch yoqdan qarash // "Ozod Buxoro". 1924 yil 8-mart. 59-son. (Looking at our women from three angles // "Free Bukhara". March 8, 1924. No. 59.)
11. Самарқанд тарихи. 2 томлик. II том. Масъул муҳаррир И. Мўминов. –Ташкент: Фан,1970. –Б.496(History of Samarkand. 2 volumes. Volume II. Responsible editor I. Muminov. – Tashkent: Fan, 1970. –B.496).



Нодира Абдуллаевна Бабаджанова,
Тарих фанлари номзоди, доцент.
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети
nodiraxon.b@mail.ru

ЎЗБЕКИСТОН АХОЛИСИ МИЛЛИЙ ТАРКИБИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (1946-1991 йиллар)

For citation: Nodira A.Babadjanova, CHANGES IN THE NATIONAL COMPOSITION OF THE POPULATION OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2022, vol. 5, issue 4, pp.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада муаллифлар бугунга қадар кам ўрганилган манбалар, архив ҳужжатлари ва статистик маълумотлар асосида совет сиёсатининг Ўзбекистон аҳолиси миллий таркиби ўзгаришига таъсирини ёритиб берган. Мақолада келтирилган маълумотлар шу пайтга қадар халқаро доирада нашр этилган ишларга қўшимча материал бўлиб хизмат қилади.

Калит сўзлар: кадрлар сиёсати, меҳнат ресурслари, кўпмиллатлилик, уруш, эвакуация, депортация, махсус кўчирилганлар, саноатлаштириш, демографик сиёсат, миллий таркиб, менталитет.

Нодира Абдуллаевна Бабаджанова,
Кандидат исторических наук, доцент
Узбекский государственный университет мировых языков
nodiraxon.b@mail.ru

ИЗМЕНЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОМ СОСТАВЕ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА (1946-1991 годы)

АННОТАЦИЯ

В данной статье авторами освещается влияние советской политики на изменение национального состава населения Узбекистана на основе малоизученных источников, архивных материалов и статистических данных. Приведенные в данной статье сведения могут послужить дополнительным материалом к ранее опубликованным в международных научных кругах работам.

Ключевые слова: кадровая политика, трудовой потенциал, многонациональность, война, эвакуация, депортация, спецпереселенцы, промышленность, демографическая политика, национальный состав, менталитет.